

O'ZBEK TILIDA UCHRAYDIGAN EVFEMIZMLAR O'RGANILISH TARIXI, YUZAGA KELISH SABABLARI VA TAHLILI

Egamberdiyeva Shahnoza

ToshDO'TAU Tayanch doktoranti

ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ, ПРИЧИНЫ ПОЯВЛЕНИЯ И АНАЛИЗ ЭВФЕМИЗМОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Эгамбердиева Шахноза

базовый докторант в ТашГУУЯИЛ

THE HISTORY OF RESEARCH, CAUSES OF EMERGENCE, AND ANALYSIS OF EUPHEMISMS IN THE UZBEK LANGUAGE

Egamberdieva Shahnoza

PhD student in TSUULL



Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilida evfemizmlarning o'rganilish tarixi, ularning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan madaniy, diniy va ijtimoiy omillar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy o'zbek nutqida qo'llaniladigan evfemizmlarning tilshunoslik tahlili va ularning kommunikativ funksiyalari tahlil qilinadi. Alohida e'tibor tabu so'zlarga va ularning evfemistik iboralar bilan almashtirilishiga qaratilgan.

Kalit so'zlar: evfemizm, o'zbek tili, tabu, tilshunoslik, madaniyat, mutq, kommunikatsiya, ijtimoiy me'yorlar.

Аннотация: В статье рассматривается история изучения эвфемизмов в узбекском языке, раскрываются их основные причины появления, такие как культурные, религиозные и социальные факторы. Также проводится лингвистический анализ эвфемизмов, используемых в современной узбекской речи, с указанием их функций в коммуникативной практике. Особое внимание уделено табуированной лексике и способам её замещения эвфемистическими выражениями.

Ключевые слова: эвфемизм, узбекский язык, табу, лингвистика, культура, речь, коммуникация, социальные нормы.

Abstract: This article explores the historical study of euphemisms in the Uzbek language and identifies key reasons for their emergence, such as cultural, religious, and social influences. It also includes a linguistic analysis of euphemisms commonly used in modern Uzbek speech and their communicative functions. Special attention is paid to taboo vocabulary and its replacement through euphemistic expressions.

Keywords: euphemism, Uzbek language, taboo, linguistics, culture, speech, communication, social norms.

Kirish. Hozirgi kunda globallashuv davrida ilm-fanga qaratilayotgan ulkan e'tibor tufayli barcha sohalarda faoliyat yuritayotgan mutaxassislar shaxsiy rivojlanish uchun keng imkoniyatlar yaratilib berilmoqda. Bu o'z navbatida turli tillar doirasida lisoniy tadqiqotlar ko'lamenti tilshuoslikning barcha yo'nalishlarida, jumladan morfologiya, leksikologiya, sintaksis, orfografiya, pragmatika va stilistika

singari bo'limlarda kengayib borishiga xizmat qilmoqda. Ma'lumki, o'zbek tili lisoniy imkoniyatlari nutqiy voqelanishining o'ziga xos ko'rinishi bo'lgan evfemizm va disfemizmlarda til va ma'naviyat, til va ruh mushtarakligi yaqqol namoyon bo'ladi¹. Tilshunos olimlar tilning barcha jabhalarini tadqiq etganidek, evfemizm hodisasi ularning e'tiboridan chetda qolgani yo'q. Chunki evfemizm-

¹ Kadirova X. O'zbek tilida evfemizm va disfemizm.

"Bookmany Print", Toshkent – 2022.

lar semantikasini, ularning ishlatilish o‘rinlari hamda sabablarini bilmagan shaxslar nutqdan ko‘zlangan maqsadni to‘laqonli anglay olmaydi.

Tilda evfemizmlarning voqelanishi tasodify hodisa emas, balki nutqiy etiket zaruratidir. Hozirgi tilshunos olimlar tomonidan evfemizmlarga barcha tillarda mavjud bo‘lgan umumiyligi hodisa siatida qaraladi. Ularning mavzu doirasi, ishlatilishi o‘rni va ko‘lamli tilning lug‘at doirasiga bog‘liq holda, u tildan bu tilga farq qilishi mumkin.

Maqolamiz avvalida evfemizm o‘zi nima ekanligiga to‘xtalib o‘tishimiz joiz. Shu o‘rinda evfemizmlarning kelib chiqishiga e’tibor qaratamiz. Evfemizm so‘zi yunon tilidan olingan bo‘lib, unga o‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagicha ta’rif berilgan: Evfemizm² [yun. euphemismos <eu-yaxshi+phemi-gapiraman] biror sababga ko‘ra qo‘llanilishi ta’qiqlangan yoki qo‘llanilishi noqulay bo‘lgan qo‘pol, dag‘al so‘z, ibora o‘rniga boshqa yumshoqroq so‘z yoki ibora qo‘llash. Masalan, “chayon” so‘zi o‘rnida “eshak, oti yo‘q”³ so‘z va iborasining qo‘llanilishi⁴.

Yuqoridaq berilgan ta’rif orqali evfemizmlar nutq jarayoni, badiiy asardagi personajlar nutqini qo‘polligini bartaraf etish, uni yumshoqroq, ijobjiroq tarzda tinglovchiga yetkazish uchun foydalanishini ta’kidlash mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlar doirasida ham evfemizm hodisasi berilgan izohlarga ko‘plab duch kelishimiz ularning keng miqyosda o‘rganilayotgani va qiziqish bildirilayotganidan dalolat beradi. Jumladan, ingliz tilida evfemizmga “... is a polite or mild expression used to replace a word or phrase that might be considered rude, harsh, or unpleasant, euphemism is also used to avoid offending someone, or to soften the impact of a negative or sensitive topic”⁵ kabi izohga duch keldik. Tildagi bunday so‘z yoki iboralar qo‘pol, yoqimsiz tushunchalardan anglashiladigan ma’no orqali insonlarni haqorat qilishni oldini olish uchun yoki salbiy munosabatlar jarayonini yumshatish uchun nutq jarayoniga kiritiladi.

² O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-chi jild. 77-sahifa. G‘.G’ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi

³ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-chi jild. 77-sahifa. G‘.G’ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi

⁴ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-chi jild. 77-sahifa. G‘.G’ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi

⁵ <https://www.facebook.com/share/r/15kPLiKmYK/?mbextid=WwXlfr>

Evfemizm hodisasi har qanday tilda ham salmoqli o‘rin tutadi. Tilning lug‘at boyligi nafaqat so‘zlar, iboralar bilan, balki ayrim so‘zlarining o‘rnida ishlatiladigan, nutqni ifodaliligin oshiruvchi birliklar bilan ham salmoqlanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.

Evfemizmlarning tildagi o‘rnini tadqiq etish yoki tadqiqot obyektidan chiqarish masalasi turli davr tilshunoslarning babs-munozaralariga sabab bo‘lib kelgan. Ayrim olimlar ularni oddiy sinonimik qatordagi so‘zlar doirasiga kiritgan bo‘lsa-da, ko‘pchilik boshqa olimlar ularni chuqr o‘rganilishi shart bo‘lgan hodisa deya izohlashgan.

Lingvistik jihatdan tabu va evfemizmlarni o‘rganish XIX asr oxirlaridan boshlangan. A. Mayo esa qadimiy tillardan foydalanib, tabu va evfemizmlarning lingvistik xususiyatlarini tahlil qilib, bu jarayonni so‘z semantikasining o‘zgarishi deb ta’riflaydi. XX asrning 60-80 yillarda esa S.Vidlak, Dj.Keyn va Dj.Lorens tadqiqotlari orqali tabu va evfemizmlarni chuqr o‘rganish jarayoni kengayadi.

A.A. Reformatskiy⁶ “Эвфемизмы – это заменные, разрешенные слова, которые употребляют вместо запрещенных (табуированных)” – evfemizmlarga ta’qiqlangan (tabulangan) so‘zlar o‘rniga qo‘llanishga ruxsat berilgan so‘zlar deya ta’rif beradi⁷.

Evfemizm hodisasi turkiy tilshunoslarning ham e’tiborini o‘ziga tortgan. Bunga turli tilshunoslarni monografiyalarini keltirishimiz mumkin. Bularidan o‘zbek tilshunos olimi N. Ismatullayev⁸ ning nomzodlik dissertatsiyasi ham misol bo‘la oladi. U tadqiqotida tabu va evfemizm ma‘lumotlarini jamlab, o‘z xulosalarini ilmiy ishi doirasiga kiritgan.

Shuningdek, evfemizm tasnifi xususida turli tilshunos olimlar qarashlariga fikr bildirib, o‘z ishlarida uning yaratilish sabablariga ko‘ra tasnifini taklif etadi. 1997-yilda A.Omonturdiev evfemizmni uslubshunoslikning tadqiqot obyekti sifatida allaqachon o‘z yechimini topishi kerak bo‘lgan

⁶ А.А.Реформатский. Введение в языкознание. Аспект Пресс, Москва: - 1996. – С.56

⁷ Kadirova X. O‘zbek tilida evfemizm va disfemizm. “Bookmany Print”, Toshkent – 2022.

⁸ Ismatullayev N. Zamonaviy o‘zbek tilida evfemizmlar: Avtoref. Kand.filol.nauk. – Т.,1963.

mavvusi sifatida keng doirada o'rganib, o'zbek nutqining evfemik asoslarini tadqiq qiladi. U ham yuqoridagi fikrga qo'shilgan holda, evfemizmlarni etimologik, ijtimoiy-madaniy xususda o'rganish kerakligini aytgan⁹.

Bungacha 1983-yilda nashr etilgan "O'zbek tili stilistikasi" o'quv qo'llanmasida evfemizm hamda kakofemizm (disfemizm) haqida o'z fikrlarini bayon etgan. Til taraqqiyoti, global muammolarning yechimi uslubshunoslikni professional nutqning barcha tarmoqlarini fundamental tadqiq qilish, evfemik vositalarini yozib olish, evfemiologiyani ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o'rganildi.

A.Omonturdiyev o'zining "Professional nutq evfemikasi" nomli doktorlik dissertatsiyasida chorvador nutqiga xos evfemik vositalarni etnolingistik nuqtai nazardan tushuntirishga qaratilgan masalalarni tadqiq etdi. Ushbu ishda chorvadorlar nutqidagi evfemizmlar, xususan, chorvadorlarning hayoti, yashash tarzi, dunyoqarashi, urf-odatlari, an'analari va marosimlari bilan bog'liq jihatlar o'rganilgan. Shuningdek, evfemizm o'zbek tilshunosligida disfemizmga nisbatan kengroq ko'rib chiqilgan¹⁰. Hozirgi kunga kelib, yuqorida sanab o'tilgan olimlar tomonidan evfemizmnning ko'proq nutqiy qatlam sifatidagi xususiyatlari sistematik tarzda tadqiq etilgan

Muhokama. Shu o'rinda evfemiyada hodisasingning vujudga kelish sabablariga ham alohida to'xtalib o'tishni taqozo etadi. Qadimgi davrlardan buyon nutq jarayonida evfemik birlikkardan foydalanish nutqni boyitishga, uning uslubiy hamda stilistik bo'yoqdorligini oshirishga xizmat qilib kelgan. Asrlar mobaynida nutqiy madanyatni yuksaltirishga bo'lgan urinishlar kuchayib ilohlar, inson tana a'zolari, salbiy ijtimoiy vaziyatlar bilan bog'liq tushunchalarni nomini ishlatmaslikka harakat qilingan va bu qadimgi davr adabiyotlarida, badiiy asarlarda o'z aksini topgan.

XIX asrga kelib yangicha madaniy hayot tarzi shakllanishi natijasida nutqiy madanyat yanada rivoj topa boshlaydi va keyingi asrlarda nafaqat inson a'zolari, balki hayvonlarni ifodalash avj ola boshlaydi.

⁹ Omonturdiyev A.J. O'zbek tili uslubiyati. – T., 2012

¹⁰ Omonturdiyev A.J. O'zbek tili uslubiyati. – T., 2012

¹¹.Реформатский А.А. Введение в языковедение. АСПЕКТ ПРЕСС, Москва: - 1996. – С.56

A.A.Reformatskiy tabu o'rnida qo'llanilayotgan evfemik birliklarni etnik taraqqiyot bilan bog'liq deb hisoblaydi. Tabuning paydo bo'lishiga turli bid'at va xurofotlar sabab bo'lganligini aytib, evfemizmlar uning nomini yopish uchun xizmat qilishini ta'kidlaydi¹¹.

R.A. Budagov¹² tabuning paydo bo'lishiga insoniyatning e'tiqodini sabab qilib ko'rsatadi va tafakkur rivojining asosi deb aytgani holda, evfemizmga tabuning ahamiyati doir emas deb hisoblaydi. Evfemizm esa nutqiy madanyat yuzasidan vaziyatni yumshatish uchun qo'llanadi. Evfemizmlar nafaqat aytish mumkin bo'lмаган narsa-predmet, voqeа-hodisaning nomini yashirish maqsadida, balki madaniy, badiiy nutq hosil qilishda, shuningdek, uslubning rang-barang ko'rinishlarini yaratishda ham xizmat qiladi. Uning tadqiqot ishlarida evfemizmlar ikki yirik guruhlarga sinflangan: badiiy til evfemizmlari, qo'pol so'zni ifodalamaslikka intilishi natijasida yuzaga kelgan turli jargon evfemizmlaridir.

Badiiy adabiyotlarda evfemizmlarning aksariyati insonni, uning xususiyatlari va xattiharakatlarini ifodalash uchun ishlatiladi. Aksariyat rus olimlarining fikricha, evfemizmlar qadimgi hind yevropa xalqlari turmush tarzida mavjud bo'lib, asosan hayvon va salbiy hodisalar nomini aytmaslikka intilish natijasida yuzaga kelgan, bunga misol tariqasida "умер" so'zi o'rnida "отправился к праотцам, отдал Богу душу" birikmalarini keltirishimiz mumkin.

Evfemizmlar yuzaga kelishi va nutq jarayoniga kirib kelishining yana bir asosiy sabablaridan biri sifatida jamiyatda senzuruning kuchayishi, ayrim insonlar ismini aytmaslik, harbiy yoki siyosiy vaziyatlarni ochiqchasiga tilga olmaslik ham keltirilishi mumkin. Bu holat uchun A.A. Reformatskiy¹³ kitobida namuna aks ettirilgan bo'lib, birinchi jahon urushi davrida G. Rasputin o'ldirilganidan keyin, jurnalistlar uni ismini tilga olmaslik uchun *одно значительное лицо* evfemizmidan keng foydalanishgan.

Evfemizmdan foydalanishning yana bir holati nutqda madanyatli muhitga intilish, odobaxloq qoidalariga amal qilish, qo'pol va odobsiz

¹² Будагов Р.А. Очерки по языкоznанию. Монография Москва: – 1953.

¹³ А.А.Реформатский. Введение в языковедение.Аспект Пресс, Москва: – 1996. – С.57

iboralardan qochish jarayonida uchraydi. Masalan, *время – вы ошибаетесь, вы не вполне правы; операция – здесь необходимо хирургическое вмешательство; unemployed – in between jobs; slums – substandard housing; pora – konvert orqali ulashilgan badal; homilador – yuklik, og‘ir oyoq* kabi birlıklarni evfemizlar turli tillarda keng ko‘lamda uchrashiga, nutqni badiiylashtirish, muloyimlashtirish vazifasini bajarishiga dalil sifatida keltirishimiz mumkin.

Tilshunoslar duch keladigan yana bir katta masalalardan biri – evfemizmlar klassifikatsiyasi. Evfemiya hodisasini sinflash orqali tadqiq etish tilshunoslik tarixida ko‘plab uchraydi. Dunyo tilshunos olimlari evfemizmlarni o‘rganish jarayonida ularni turli hil jihatlariga asoslanib, bir necha usullarda tasniflashgan. Bunday tasniflarni eng ko‘zga tashlanadigan turi bu ma’no guruhlariga ajratishdir.

Evfemizmlarni R. Holder¹⁴ leksik-semantik jihatdan oltmishta guruhga bo‘lib o‘rgangan va har bir guruh doirasiga kiradigan evfemizmlarni misollar tariqasida berib o‘tgan. U o‘zining efvemizmlar lug‘atida badiiy asarlar hamda kundalik hayotda ko‘p uchraydigan, turli xil mavzularga oid evfemik birlıklarni ta’riflab berish bilan bir qatorda, ularning etimologiyasi, asl ma’nosи, metaforik tushunchasi, nutq jarayonida ishlatilish holatlarini misollar bilan ko‘rsatib o‘tgan.

Uning ta’kidlashicha, ijtimoiy munosabatlar, irqchilik, kasallik nomlari, xayriya, farzand tug‘ilishi, erkak-ayol muloqoti, iqtisodiy jarayon, noqonuniy moddalar iste’moli kabi mavzularga oid evfemik birlıklar inglizzabon xalqlar nutqida ko‘plab uchraydi. A.M. Katsev evfemizmlarning denotativ mazmuni xilma-xilligiga ko‘ra bir qator guruhlarga ajratgan: 1) ilohiy kuchlar nomi; 2) o‘lim va kasallikni anglatuvchi birlıklar; 3) nuqson bilan bog‘liq nomlar; 4) jins bilan bog‘liq nomlar; 5) kambag‘allikni anglatuvchi nomlar; 6) ayrim kasblarni anglatuvchi nomlar; 7) aqliy va jismoniy nuqson nomlari; 8) kiyim qismlari nomlari.

Uning yana bir evfemik vositaning ontologik xarakteriga ko‘ra tasnifi ham mavjud: shaklga kirgan evfemizmlar; tabiiy ravishda vujudga kelgan

evfemizmlar; uslubiy bo‘yoq (ironiya yoki humor) asosida tabiiy vujudga kelgan evfemizmlar¹⁵.

O‘zbek tilshunos olimlari tomonidan ushbu hodisa kengroq tasniflanganligi uning mavzu doirasi yanada katta ko‘lamga ega ekanligini ko‘rsatib bergen. Jumladan, N.Ismatullayev evfemizmlarni 5 yirik guruhga ajratadi: 1) tabu bilan bog‘liq evfemizmlar (zaharli hasharotlar nomi; yirtqich hayvonlar nomi; kasallik nomi; er va xotinning birlari nomlarini aytmasliklari; xotin-qizlar tilida uchraydigan evfemizmlar); 2) bid’at, irim qilish bilan bog‘liq evfemizmlar; 3) ma’nosи qo‘pol, aytish noqulay bo‘lgan so‘z va iboralar o‘rnida qo‘llanadigan evfemizmlar; 4) nutqiy bemazalik, ko‘tarinkilik va diniy maqsadlar uchun qo‘llanadigan jargon evfemizmlar; 5) stilistik evfemizmlar.

Mavzuiy guruhlarga ajratilgan ifodalar tasnifi esa A.Omonturdiyev tomonidan tadqiq qilingan ilmiy ishda o‘z aksini topadi: 1) oila qurish bilan bog‘liq evfemik vositalar; 2) axloqsizlik bilan bog‘liq evfemik vositalar; 3) intim munosabat bilan bog‘liq evfemik vositalar; 4) murojaat bilan bog‘liq evfemik vositalar; 5) inson a’zolari va ular bilan bog‘liq kiyim nomlari evfemasi; 6) jismoniy nuqsonlar bilan bog‘liq evfemik vositalar; 7) ovqatlanish va uning hazmi bilan bog‘liq evfemik vositalar; 8) insonning salbiy faoliyati bilan bog‘liq evfemik vositalar; 9) ayrim odat-an’ana bilan bog‘liq evfemik vositalar; 10) qarilik tushunchasi bilan bog‘liq evfemik vositalar; 11) o‘lim bilan bog‘liq evfemik vositalar¹⁶.

Tilshunoslik sohasini chuqur o‘rganish jarayonida tilning imkoniyatlarini batapsil ochib berishga erishish uchun tilshunos olimlar nafaqat terminologiyani, balki matn yoki nutqda uchragan evfemik birlıklarning to‘liq semantikasi bilishi kerak. Shuni ta’kidlash kerakki, intensiv rivojlanayotgan tilshunoslik sohasida faoliyat olib borayotgan mutaxassislar qardosh bo‘lmagan tillararo tadqiqotda, u xoh badiiy, xoh ilmiy bo‘lsin evfemik birliklarga, ayniqsa ularning to‘g‘ri qo‘llanishiga, ulardan foydalanishdan ko‘zlangan maqsadga e’tibor berishlari kerak.

Xorijiy tillarni o‘qitishning kompleks tizimini yaratish hamda respublikaning jahon

¹⁴ Holder R.W. How not to say what you mean. Oxford University Press, 2002

¹⁵ Kadirova X. O‘zbek tilida evfemizm va disfemizm. “Bookmany Print”, Toshkent – 2022.

¹⁶ Kadirova X. O‘zbek tilida evfemizm va disfemizm. “Bookmany Print”, Toshkent – 2022.

hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga alohida e'tibor qaratilishi nafaqat xorijiy tillarni o'rganish yoki o'qitishda, turli xil lug'atlar tuzishda, balki tarjima adekvatligiga erishishda ham muhim ahamiyat kasb etib, bu o'z navbatida maxsus nazariy tadqiqotlarni taqozo qilad¹⁷. Tilning har bir e'tiborga molik joylarini o'rganib, uni bo'lajak tilshunos olim-larga tilshunoslik oliy o'quv dargohlaridagi darslar mobaynida batafsil tushuntirish uchun tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Tahlil. Evfemizmlar har bir tilda gapiruvchining so'z tanlash madaniyati, ijtimoiy munosabati va axloqiy qadriyatlarini ifoda etadigan muhim leksik-stistik vositadir. O'zbek tilida ham evfemizmlar nafaqat tabu mavzularni yumshatish, balki oddiy, hayotiy holatlarni ham muloyim, hurmatli, hissiy jihatdan maqbul shaklda bayon etishga xizmat qiladi. Evfemizmlar orqali gapiruvchi tinglovchida mulohazali, diplomatik va ijobiy taassurot qoldirishga intiladi. Quyida o'zbek tilida keng qo'llaniladigan, tabu bilan bog'liq bo'limgan bir qator evfemizmlar misolida ularning mazmun-mohiyati va funksiyasi tahlil etiladi. Misol uchun: "U kishi hozir xizmatda, vaqtlan bo'lsa o'zlar kelar".¹⁸ Bu misolda *xizmatda* so'zi *ishda* degan ma'nomi anglatadi. Bir qarashda oddiy so'z, ammo *ishda* so'zi o'rniha *xizmatda* deyish orqali gapga rasmiy, hurmatli va ijobiy tus beriladi. Bu evfemizm rasmiy muomalada va kattalarga murojaatda keng ishlataladi.

Yana bir misolni tahlilga tortsak: "Bir oila bor, juda qynalib qolgan, yordam kerak ekan".¹⁹ Bu yerda "yordam kerak" degan ifoda aslida moddiy yoki moliyaviy yordam (pul) talab etilayotganini bildiradi. Ammo "pul kerak" deyish ko'pincha og'ir va noqulay eshitiladi. Shuning uchun "yordam kerak" yumshoq, evfemistik va ijtimoiy jihatdan qabul qilingan ifoda hisoblanadi.

Yuqoridagi misollar shundan dalolat beradiki, evfemizmlar faqat tabu so'zlar bilan cheklanib qolmaydi. Ular quyidagi vaziyatlarda qo'llanishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Nutqni yumshoq va muloyim qilish;
2. Hurmat va rasmiyatni saqlash;
3. Munosabatni qaltis tus bermay ifoda qilish;
4. Ijtimoiy "nazariy" me'yorlarga moslashish uchun ishlataladi.

¹⁷ Khudjayeva,R.M.2022."Translation Interpretation of English-Uzbek Phraseological homonyms" Uzbekistan: language and culture, 3 (2): 88-107.

Xulosa. Evfemizmlar o'zbek tilida muhim leksik vosita sifatida qo'llanadi. Ular orqali gapiruvchilar turli ijtimoiy vaziyatlarda, ayniqa, salbiy yoki yomon taassurot qoldirishi mumkin bo'lgan so'zlarni yumshatib, muloyim va hurmatli shaklda ifoda etadilar. Bu til vositalari tabu mavzularni yoki faqatgina salbiy ma'noli so'zlarni tinglovchiga kamsitmasdan, ehtiyyot bilan yetkazishga yordam beradi.

Shuningdek, evfemizmlar madaniy qadriyatlar va axloqiy me'yorlarni saqlashga xizmat qiladi. Evfemizmlarni qo'llash muhimki, chunki ular ijtimoiy munosabatlarda hurmat, inson huquqlari va me'yorlarni ta'minlaydi. Jamiyatda mulohazali va rahm-shafqatli muomala qilish uchun tildagi bu xil amaliy vositalardan foydalanish insonlar orasida yagona xursandchilik hamda yaxshi munosabatlarni shakllantiradi.

Demak, evfemizmlar tilning ijtimoiy va madaniy ahamiyatini namoyon qiladi. Ular orqali til, jamiyatdagi axloqiy va ijtimoiy me'yorlarga muvofiqlashib, ehtiyyotkor ko'rsatmalar beradi. Bu esa tilni o'zining ijtimoiy vazifalarini to'g'ri bajaradigan samarali vosita sifatida ishlatishni ta'minlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-chi jild. 77-sahifa. G'.G'ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-chi jild. 77-sahifa. G'.G'ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
3. <https://www.facebook.com/share/r/15kPLIKm-YK/?mibextid=WwXlfr>
4. А.А.Реформатский. Введение в языкоковедение. Аспект Пресс, Москва: - 1996. – С.56
5. Будагов Р.А. Очерки по языкоznанию. Монография Москва: – 1953.
6. А.А.Реформатский. Введение в языкоковедение. Аспект Пресс, Москва: – 1996. – С.57
7. Holder R.W. How not to say what you mean. Oxford University Press, 2002.
- 8.Khudjaeva, R.M. 2022. "Translation Interpretation of English-Uzbek Phraseological homonyms" Uzbekistan: language and culture, 3 (2): 88-107.
10. ЎзР Фанлар академияси тил институти мақолалари тўплами, 2021.
11. "Маҳалла ҳаёти" газетаси, №4, 2022.

¹⁸ ЎзР Фанлар академияси тил институти мақолалари тўплами, 2021.

¹⁹ "Маҳалла ҳаёти" газетаси, №4, 2022.